

## „Maqollar” mavzusida dars ishlanmasi

Usmonova Umida,

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

[usmonova2104@gmail.com](mailto:usmonova2104@gmail.com)

+998900252104

QOIDA. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo‘nda bo‘lishi kerak. Maqollar fikrni ta‘sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalaydi. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati hisoblanadi. Bejiz ‘‘Ilm o‘lchovi-aql, zehn o‘lchovi –naql’’, deyilmaydi. Maqollar, asosan ,bir, ikki misrali bo‘ladi. Ularda antonimlardan keng foydalaniladi. 358-mashq.,„Besh luqma’’ topshirig‘i. Vatan va vatanparvarlik haqidagi ushbu maqollarni o‘qib , sharhlashga harakat qiling. Ular asosida 5 ta gapdan iborat matn tuzing. 1.To‘ygan yerdan tug‘gan yer yaxshi. 2.Sigirning suti – tilida, yerning quti – elida. 3. Ko‘rpang qayerda bo‘lsa ,ko‘ngling shu yerda. 4. Elga qo‘shilgan moy yutar,eldan ayrilgan qon yutar. 5.O‘z yurtning o‘lan to‘shaging, o‘zga yurt bo‘lmas beshiging. 6. Har toycha o‘zi suv ichgan bulog‘ini maqtar. 359-mashq. Og‘zaki mashq. Ikki guruhga bo‘lining.Halollik va do‘stlik haqida maqol aytib bellashing. 360- mashq. Maqollarni ko‘chiring. Avval ilm haqidagi, keyin mehnat haqidagi maqollarni ajratib yozing. 1.Baxtingga ishonma barmog‘ingga ishon.2.Dangasaga ostona tepa bo‘lib ko‘rinar. 3.Ilmlil uy charog‘on,ilmsiz uy zimiston. 4.Daraxt yaprog‘I bilan ko‘rkam, odammehnatil bilan. 5. Bilganing daryo bo‘lsa, bilmaganing –dengiz. 6. Tindim tunda, tinmadim kunduzi,bo‘ldi qo‘y telpagim qunduzi. 7.Ilming tomir otishi achchiq, ammo hosili shirin. 361- mashq. Hikoyaga mos maqol topishga harakat qiling. Bir ari suv ustida uchib borar edi. Birdan suvga yiqilib tushdi. Qanotlari ho‘l bo‘lib, uchishga kuchi yetmadi.O‘lar holatga yetdi. Buni kabutar ko‘rib , ariga rahmi kelib,darhol bir cho‘pni tishlab

suvga tashladi. Bechora ari bu cho'pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Oradan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rib, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtni g'animat bilib, uchib ketib o'limdan qutuldi.

**MAQOLLARDAN NAMUNALAR:** Esda saqlang. Bir qizga yetti qo'shni ota-ona. Minnatli tuyadan beminnat to'qli afzal. Asl boylik- qanoat. Kishi yo'q deb deb so'zlama, og'zing yomon o'rganar. Bahorgi beg'amlik-kuzgi pushaymonlik. Anjom- uy ziynati, so'z-inson ziynati. 362- mashq Uyga vazifa „Orzuga erishishning besh yo'li“ mavzusida matn tuzing. O'zingiz to'g'ri deb bilgan 5 maqsadingizni yozing va sharhlang. Matningizda maqollardan foydalaning. 5- sinf ona-tili darsligida yangi mavzu kiritilgan bu maqollar haqida. 105 va 106- darslar ajratilgan bu mavzu uchun. O'ylashimcha, avvalo bu mavzuni ona tili darsligida o'tish xato, chunki xuddi shu sinfning adabiyot kitobida maqollar mavzusi yoritib berilgan. Shuning uchun men bu mavzu o'tilgan taqdirda ham 1 soat dars ajratilsa yaxshi bo'lar edi. O'quvchilarning qiziqishini orttirish uchun og'zaki topshiriqlar ham berilishi kerak deb o'yladim va og'zaki mashq qo'shdim.